



## PARTICIPATION OF PROSECUTOR'S OFFICES IN SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF REPRESSION

*Abdugaffor Abdusamadovich Insopov*

*Doctor of Philosophy in History (PhD)*

*Associate Professor of the Department of "Modern History of Uzbekistan"*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Political repression, prosecutor's office, legislation, control, criminal case, policy of repression, Supreme Court, criminal regime, Central Executive Committee, order.

**Received:** 19.12.25

**Accepted:** 20.12.25

**Published:** 21.12.25

**Abstract:** This article will talk about the activities of the prosecutor's office bodies carrying out control over the implementation of laws in Uzbekistan during the years of political repression, changes in the prosecutor's office system, adopted legal documents, repressed leaders and employees, participation of the population in the protection of rights freedoms in complex conditions. In addition, an analysis of data related to the activities of the prosecutor's office in the implementation of legislative control during this period is presented.

## QATAG'ONLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY JARAYONLARDA PROKURATURA ORGANLARI ISHTIROKI

*Abdugaffor Abdusamadovich Insopov*

*"O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD)*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*E-mail: [abdugaffor\\_nuz@rambler.ru](mailto:abdugaffor_nuz@rambler.ru)*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Siyosiy qatag'onlar, prokuratura, qonunchilik, nazorat, jinoiy ish, qatag'onlik siyosati, Oliy Sud, mustabid tuzum, Markaziy Ijroiya Qo'mita, buyruq.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura organlarining O'zbekistonda siyosiy qatag'onlik yillaridagi faoliyati, prokuratura tizimidagi o'zgarishlar, qabul qilingan huquqiy hujjatlar, qatag'on qilingan rahbar va hodimlar, murakkab sharoitda aholining huquq erkinlarini ham

himoya qilishdagi ishtiroklari hususida soʻz yuritiladi. Bundan tashqari, prokuratura organlari tomonidan mazkur davrdagi qonunchilikni nazoratini amalga oshirishdagi faoliyati bilan bogʻliq maʼlumotlar tahlili keltirilgan.

## УЧАСТИЕ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ РЕПРЕССИЙ

*Абдугаффор Абдусамадович Инсопов*

*Доктор философских наук по истории (PhD)*

*Доцент кафедры “ Новейшая история Узбекистана ”*

*Национального университета им. Мирзо Улугбека*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Политические репрессии, прокуратура, законодательство, надзор, уголовное дело, репрессивная политика, Верховный суд, деспотический режим, Центральная Исполнительная Комитет, приказ.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о деятельности органов прокуратуры, осуществляющих надзор за исполнением законов в годы политических репрессий в Узбекистане, об изменениях в системе прокуратуры, принятых правовых актах, репрессированных руководителях и сотрудниках, об их участии в защите прав и свобод населения в сложных условиях. Кроме того, представлен анализ информации, связанной с деятельностью органов прокуратуры по осуществлению надзора за законодательством за данный период.

**Kirish.** Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotining alohida xususiyati bu 20-yillar boshlaridagi oʻlka mahalliy aholisining milliy oʻz-oʻzini anglashini oʻsganligi deyish mumkin. Mahalliy aholining keskin noroziligiga birinchi navbatda Markazning uning milliy manfaatlarini hisobga olmaslik siyosati sabab boʻldi. Turkiston tub aholisining kuchayib borayotgan noroziligi turli shakllarda namoyon boʻldi. Shunday norozilik shakllaridan yana biri hokimiyat pogʻonalaridagi milliy rahbar kadrlardan iborat milliy muxolifat boʻldi. Ular mustabid tuzumga, uning siyosatiga ochiqdan-ochiq qarshi fikr bildirib, mahalliy aholining manfaatlarini himoya qildilar, markazning shovinistik va imperiyacha siyosatiga qarshi faol kurash olib bordilar. Bu oʻz navbatida respublikadagi milliy rahbar kadrlar va koʻplab aholi vakillarini qatagʻon qilinishiga sabab boʻldi.

Maʼlumki, aynan mana shunday ogʻir bir davrda Markaziy Osiyodagi sobiq respublikalar eng koʻp jabr koʻrgan va qatagʻonlikning markaziga aylangan hudud sifatida qattiq nazorat

olindilar. Bu borada prokuratura organlari ham markazning topshiriqlarini bajarish maqsadida va qatag'onlik siyosatini amalga oshirishda muhim mexanizmga aylandilar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Milliy arxivi fondidagi O'zbekiston SSR prokuraturasining R-1710-fondida saqlanayotgan arxiv hujjatlari ma'lumotlariga ko'ra siyosiy qatag'onlar boshlangan bir davrda prokuratura organlari faoliyatini tubdan o'zgartirish va yagona nazorat organiga aylantirish maqsadadi 1933 yil 20 iyunda SSSR Markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq komissarlari sovetining "SSSR ittifoqi prokuraturasini ta'sis etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [1, 2022, 25].

Natijada prokuratura adliya xalq komissarligi ajratib olindi va alohida mustaqil tashkilot sifatida markazning topshiriqlarini bajaradigan tashkilotga aylandi. Shu orqali respublikalar prokuraturalari SSSR prokuraturasiga bevosita to'g'rida to'g'ri buysunadigan va markazdan ularni faoliyatiga doir ko'rsatmalar berish shuningdek, ittifoqdosh respublika prokurorlari SSSR prokurori olida hisobot berishi yo'lga qo'yildi. Ammo bu bilan prokuraturalar to'liq mustaqil tashkilot sifati faoliyat olib bormadi. Masalan O'zbekiston SSR prokurori adliya xalq komissarining o'rinbosari sifatida faoliyat olib borar va adliya tizimiga kirardi. Faqatgina 1936 yil 20 iyulda qabul qilingan Adliya xalq komissariatini tashkil etish to'g'risidagi Markaziy ijroiya qo'mita va Xalk Komissarlari Sovetining qarori qabul qilingandan so'ng prokuratura to'liq adliyadan tarkidan chiqib ketdi va mustaqil faoliyati yo'lga qo'yildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur mavzuni tadqiq etishda tarixiy-qiyosiy, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillaridan foydalanib arxiv fondlari hujjatlari va ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, muammoviy-xronologik usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** O'lkada boshlab yuborilgan qatag'onlik siyosatini amalga oshirishda eng asosiy vazifani bajargan "uchlik"lar tarkibidan joy olgan prokuratura hodimlari ko'plab begunoh insonlarni qatag'on qilinishiga sababchi bo'ldilar. Bu davr prokuratura organlarini tarixidagi qora dog' sifatida muhrlandi[2, 2022, 32].

1937 yilning 30 iyunida NKVD tomonidan sobiq quloqlar, jinoyatchilar va aksilsho'ro unsurlariga qarshi repressiya operatsiyasini o'tkazish bo'yicha 00447-sonli maxfiy buyruq ishlab chiqildi [3, 2022, 32].

NKVD buyrug'iga ko'ra respublikada va viloyatlarda "uchlik"lar tuzildi. Ular asosan inqilobga qarshi chiqqanlarni jinoyatlarini ko'rib chiqish va xukm qilish bilan shug'ullandi. Tarkibda rais sifatida ichki ishlar xalq komissari, NKVDning o'lka va viloyatlar boshqarmalari boshliqlari va respublika, o'lka, qiloyat prokurorlari kiritilgandi. Mana davrda prokuratura organlari o'sha davrdagi siyosiy rejim manfaalariga bo'singan holda faoliyat olib bordi va uchlik tarkida begunox insonlarni siyosiy qatag'on qilinishiga yordamlashdi.

Respublika NKVDsi “uchlik” lari tomonidan 1937-39 yillarda 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 6 ming 920 tasi otib tashlangan edi [4, 2015, 325-326]. Inson huquqlari amalda poymol etildi. Qamoqxonalarda mahbuslar shafqatsiz jismoniy jazolarga mahkum etildilar.

Prokuratura organlari murakkab bir sharoitda faoliyat olib borsalarda ba’zi holatlarda aholining huquq erkinlarini ham himoya qildilar.

Aynan mana shu yillarda qatag‘onlik siyosati prokuratura organlarida faoliyat yuritib kelgan ko‘plab turli millat vakillarini ham o‘z domiga tortganligini ko‘rish mumkin. NKVD tomonidan olib borilgan noqonuniy tergov jarayonlarini aniqlash, qonunga zid ravishda xibshonalarda begunoh insonlarni ushlab turish, tergov hujjatlarini sohtalashtirish jarayonlari bilan bog‘liq holatlar prokuratura organlari tonidan aniqlanishi va holat yuzasidan norozolik kiritilishi natijasida tizim hodimlari ham qatag‘on qilinadi. Xususan; 1927-1930 yillarda adliya xalk komissari va respublika prokurori bo‘lgan Axmadbek Matqulovich Mavlonbekov 1937 yilda qamoqqa olinadi va 1938 yilda qatag‘on qilinadi, 1932-1933 yillarda boshqargan Eduard Karlovich Sinat ham 1938 yilda qatag‘on qilinadi [5, 2022, 26].

Shuningdek, respublikadagi og‘ir ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ya’ni, 1933-1934 yillarda respublika prokurori bo‘lgan Davronbek Ahmadbekov ham 1938 yilda ko‘plab ayblovlar bilan qo‘lga olinadi va qatag‘on qilinadi.

Respublika prokuraturasiga 1934-1935 yillarda Veniamin Modestovich Kibardinlar rahbarlik qilgan bo‘lsa 1935-1938 yillarda prokuratura organlari yuridik fanlar doktori, professor Boris Vladimirovich Sheydinga tomonidan boshqarildi. Aynan Boris Vladimirovich Sheyding rahbarlik qilgan davr stalinning qatag‘onlik siyosati davri bilan bog‘liq holda kechadi va respublikada qatag‘onlik siyosatini amalga oshirishda o‘zining “faolligi” bilan ajralib turdi.

Bunda asosan milliy kadrlar ko‘proq jabr ko‘radi. Xususan, Oliy Sud prokurori lavozimida ishlagan Badriddin Sharipov (1938 yilda qamoqqa olinib qatag‘on qilingan), ilk o‘zbek huquqshunos olimi Muhammadjon Mo‘minov (1937 yilda qamoqqa olingan va 1938 yilda otib tashlangan) va uning turmush o‘rtog‘i O‘zbekiston SSR prokurori yordamchisi vazifasida faoliyat olib borgan Dilorom Yusupova (turmush o‘rtog‘i ya’ni Muhammadjon Mo‘minovning jinoyatini yashirganlikda ayblanib 1937 yilda qamoqqa olingan), Andijon viloyati Leninsk (hozirgi Asaka) tumani prokurori Ali Hamroboyev (1938 yilda otuvga hukm qilingan), Qoraqalpog‘iston ASSR Chimboy tumani prokurori lavozimida ishlagan Mirzaqul Boboyev (1942 yilda nemislar bilan til biriktirganlikda ayblangan va 1943 yilda surgun qilingan), Qashqadaryo okrug prokurori Toshpo‘lat Jabborov (1937 yilda qamoqqa olingan), Zomin va Tomdi tumanlari prokurori lavozimida ishlagan Nakib Axmedov (otuvga hukm qilingan) va boshqa ko‘plab maxalliy kadrlar

qatag'on qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki prokuratura organlari nafaqat jazolovchi sifatida balki, o'z navbatida qatag'onlikning o'ziga hos qurbonlari ham bo'lishdi [6, 2022, 34-35].

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, siyosiy qatag'onlik yillarida qariyb 100 dan ortiq prokuratura hodimlari ishdan bo'shatilgan bo'lib, aksariyati ustidan jinoiy ish qo'zg'atilgan va qatag'on qilingan.

Siyosiy qatag'onlik yillarida respublikada prokuratura organlarining tuzilishi qo'yidagicha bo'ldi:

- Kadrlar bo'limi;
- Sud ma'muriy sektori;
- Qamoqda saqlash joylari ustidan nazorat sektori;
- Sud-maishiy sektori;
- Maxsus (Lagerlar) sektori;
- Militsiya sektori;
- Qishloq ho'jaligi sektori;
- Sanoat sektori;
- Savdo Kooperatsiya sektori;
- Fuqarolik bo'limi;
- Murojaatlar bo'limi;
- Kotibiyat;
- Buxgalteriya bo'limlaridan iborat bo'ldi.

Mana shu davrda jami 389 nafar hodim faoliyat yuritdi. 1937 yilga kelib esa Umumiy nazorat bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi [7, 2022, 36].

Prokuratura organlir mana shu davrda kolxozlar ish faoliyati bilan bog'liq jinoyatlarni ham nazorat qilib bordilar.

O'zbekiston SSR prokurori B.V.Sheydlin tomonidan joylarda prokuratura hodimlari tomonidan o'rganilgan va aniqlangan kamchiliklar to'g'risida O'zSSR MIK bergan xatida keltirib o'tiladi. Unda asosiy e'tibor kolxozlarda ish yuritishni aniq tartibi yo'qligi sababli kelib chiqayotgan muammolarga e'tibor qaratiladi. Xususan, kolxoz raislarini bir vaqtning o'zida hisobchi lavozimlarini ham egallab olganligi tanqid qilinadi va o'rganishlar natijasida aniqlangan holatlar keltirib o'tiladi. O'z shaxsiy manfaatlarin ko'zlab ish olib borganligi tufayli ko'plab rayonlarda dalvat mablag'larin o'zlashtirish buyicha ma'lumotlarda Bauman rayoni Yusupov kolxoz rasi Quvondiq Bozorov tomonidan 19156 so'm, Urgut rayoni Voroshilov kolxoz rasi Tangriqul Salimov 6500 so'm, Mitan rayoni Voroshilov kolxoz rasi Qubaz Sujunov tomonidan 3359 so'm mablag'ni o'zlatirganligi aniqlangan. Urgut rayonidagi Oxunboboyev, G'alla orol rayonidagi Zelenskiy, Bashkent rayonidagi Ikromov, Karmana rayonidagi Turkiston, Sverdlov

rayonidagi Guliston kolxozlarida ham bu kabi holatlar aniqlanadi [8, 143, 6]. Bu holatlar shuni ko'rsatib beradiki, joylarda kolxozlashtirish siyosati amalda umuman talab darajasida bo'lmaganligi va aniq tartib belgilanmaganligidir.

1938 yilda O'zSSR prokurori Kuxarenkoni buyrug'i bilan markaziy apparatda o'zgarishlar amalga oshiriladi. Prokuratura tarkibidagi "Ishlar boshqarmasi" va "Moliya" bo'limlari birlashtirilib O'zSSR prokuraturasi "Ma'muriy-moliya boshqarma"si tashkil etiladi. Boshqarma tarkibida esa 2 ta bo'lim "Bux'galteriya hisobini boshqarish" va "Ma'muriy-hujalik ishlari" bo'limlari tashkil etiladi [9, 143, 18].

**Xulosa va takliflar.** O'zbekistonda prokuratura organlari faoliyati yo'lga qo'yilgan dastlabki davrlardan boshlab, tizim murakkab jarayonlarni bosib o'tganligini ko'rish mumkin. Bunda albatta siyosiy qatag'onlar alohida prokuratura tarixidagi eng muhim davrlardan biri sifatida tarixga muhurlandi. Mana shunday og'ir bir davrda respublikada prokuratura organlari o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida markazning topshiriqlarini bajarish maqsadida qatag'onlik siyosatini amalga oshirishda muhim mexanizmga aylandilar. Bu o'z navbatida prokuratura organlari faoliyatini salbiy jihatlarini ko'rsatsada, tizim tomonidan nohaq ayblovlar qo'yilgan insonlarni himoya qilish, asossiz chiqarilgan hukmlar bekor qilish bo'yicha protestlarni ham kiritganliklarini ham ko'rsatadi. Natijada jamiyatdagi nohakliklarga qarshi bosh ko'targan ko'plab tizim hodimlari ham qatag'onlikning qurboniga aylandilar. Bundan tashqari Respublikada prokuratura organlarini tashkil qilinishi og'ir ijtimoiy, iqtisodiy davrga to'g'ri kelganligi sababli bu tuzilmalarning faoliyatini yo'lga qo'yish murakkab kechganligini ko'rish mumkin. O'z navbatida bu davrda huquqiy jihatdan malakali bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash masalasi ham eng katta muammolardan biri hisoblanardi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.T.Yo'ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent,-2022. Tamaddun. –B 25.
2. N.T.Yo'ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent,-2022. Tamaddun. –B 32.
3. N.T.Yo'ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent,-2022. Tamaddun. –B.32.
4. Eshov B.J., Yunusova X.E. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 325-326.
5. N.T.Yo'ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent,-2022. Tamaddun. –B.26.
6. N.T.Yo'ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent,-2022. Tamaddun. –B.34-35.
7. N.T.Yo'ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent,-2022. Tamaddun. –B.36.
8. O'zMA R-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 143 -ish, 6- varaq.
9. O'zMA R-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 143-ish, 18-varaq.